



## O'ZBEKISTONGA ESTRADA SAN'ATINING KIRIB KELISHI VA RIVOJLANISHI

Sobirjonova Sarvinoz

O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti  
"Estrada cholg'u ijrochiligi" fakulteti Estrada Orkestr Dirijyorligi  
yo'nalishi  
2 - kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Toxtaounova Gulniso Shavkatbek qizi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15697047>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 17-Iyun 2025 yil

### KEY WORDS

*estrada san'ati, milliylik, Botir Zokirov, professional qo'shiqchilik, milliy estrada.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada Estrada san'atining o'zbekistonga kirib kelish tarixi, uning shakllanish bosqichlari va Milliy madaniyat bilan uyg'unlashuvi haqida fikr yuritiladi.*

Musiqa har qanday xalq madaniyatining ajralmas qismidir. O'zbek xalqining musiqiy merosi juda boy. Shu boy meros ichida so'nggi asrlarda estrada san'ati ham o'ziga xos o'rin egallay boshladi. XX asr san'ati inson hayotining barcha sohalariga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, musiqa san'ati jamiyatda muhim o'rin egallab, o'zbek madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. Estrada san'ati- bu ommaviy sahna san'ati bo'lib unda qo'shiq, raqs, aktyorlik mahorati va boshqa sahnaviy ko'rinishlar uyg'unlashadi. Estrada san'atining o'ziga xos jihati zamonaviylik, yengillik va dolzarblikdir.

Estrada san'ati kundan knga rivojlanib, o'z muxlislari sonini ko'paytirib bormoqda. O'zbek san'atiga estrada va milliy estradaning kirib kelish jarayoni katta boy tarixga ega. Har bir san'atning o'z asosi bo'lganidek, o'zbek estradasining ham asosi professional qo'shiqchilikka asoslangan. XIX asrning ikkinchi yarmida boshlab xalq orasida "Estrada", "Estrada konserti", "estrada san'ati" kabi atamalar kirib kela boshladi. Estrada san'ati shakllanishidagi ilk jarayon, bu san'at yo'nalishini ifoda etuvchi va amaliyotda keng qo'llanila boshlangan atamalar bilan bog'liqligini e'tirof etish lozimdir. Bugungi yoshlarimizning aksariyati milliy Estrada janrdagi qo'shiqlarni sevib tinglashmoqda. "Estrada"(fransuzcha Estrada, lotincha Stratum)atamasi aslida taxtadan pol qurish ma'nosini anglatadi. Estrada san'ati –1) keng ma'noda –ko'ngilochar, ommabop badiiy (adabiy, musiqiy, raqs va boshqalar) janr va shakllarning umumiy ifodasi; 2) tor ma'noda- sahnaviy professional san'at turi. Rossiya va boshqa ba'zi mamlakatlarda estrada, Angliyada myuzikxoll, Fransiyada varyete, kafeshantan, kabare, AQSHda shou, revyu kabi atamalar bilan yuritiladi.

Estrada san'atining kelib chiqishi xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq bo'lsada, u muayyan (tjoratomabop) san'at turi sifatida 19-asrda Yevropa yirik shaharlarning demokratik

ijtimoiy-madaniy muhitida yuzaga kelgan. Estradaning asosiy shakli- maxsus joylarda, muntazam ravishda o'tkaziladigan Estrada konsertidir. Estrada san'ati XX asrning ikkinchi yarmida dunyo miqyosida keng tarqalgan musiqa janrlaridan biri sifatida shakllandi.

O'zbekiston xalq artisti Tamaraxonim, Usta Olim Komilov kabi san'atkorlar milliy estradaning poydevoriga asos solgan. O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov professional Estrada san'ati maktabini yaratgan. Mashhur "Yalla" guruhi, Mansur Toshmatov, Nasiba Abdullayeva, Kumush Razzaqova, Kozim Qayumov kabi ijodkorlar bevosita Botir Zokirov yaratgan milliy Estrada maktabi davomchilari bo'lib, uning rivojiga munosib hissa qo'shishgan. Bu jarayon o'ziga xos tajriba maydoni, Estrada san'atining milliyligini vujudga keltirib, o'z o'rnida o'rganilishi va tadqiq etilishi, hamda yosh avlodga o'rgatilishi lozim bolgan san'at turiga aylandi. Ushbu holat milliy Estrada san'ati sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, professional estrada ta'limini joriy etishga sabab bo'ldi.

Estrada san'ati O'zbekistonda 1950 -yillardan boshlab rivojlandi. Uning birinchi asoschilari Botir Zokirov va Enmark Saloxovlardir. Shuningdek, o'zbek estrada ijrochiligini shakllanishida o'zining ulkan hissani qo'shgan qo'shiqchi, aktyor

O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov to'g'risida alohida to'xtalib o'tish joizdir. Botir Zokirov 1936-yil 26 aprelda tavallud topgan. Turli janrlarda qo'shiqlar kuylagan: o'zbek xalq qo'shiqlari, o'zi bastalagan qoshiqlar, o'zbek va rus bastakorlarining qo'shiqlari, asosan asl ko'rinishida kuylagan. B.Zokirov Toshkent Davlat konservatoriyasining vokal fakulteti hamda A.N.Ostrovskiy nomidagi "Toshkent teatr va rassomlik san'ati rejissyorlik fakultetida tahsil olgan. 1956 yil "Yoshlik" yoshlar ansamblini tashkil etgan. Xonandani ovozini bir eshtgan odam, albatta uning ovozini eslab qolar, qo'shiqlariga mehr qo'yar edi. Xonandaning boy repertuari hammani hayratga solar edi. Ushbu repertuardan mohirona ijrodagi o'zbekcha qo'shiqlarigina o'rin olmagan hozirgi paytgacha hech kim uning go'zal ijrosi bilan raqobatlasha olmaydi. Shu kungacha bu san'at yo'nalishida juda katta yutuqlarga erishildi. O'ztele-radio qoshida 1958 yili Estrada orkestri tashkil qilindi. Kompozitorlar I.Akbarov, E.Salixov, M.Burxonov, M.Leviyev va boshqalar avval xalq folklor qo'shiqlarni Estrada yo'nalishiga moslashtirib, keyinchalik esa o'zlari shu yo'nalishda ijod qila boshladilar. Kompozitorlarning yozgan qo'shiqlarini Botir Zokirov, Luiza Zokirova, Yunus To'rayev, Muhabbat Shamayeva va boshqa xonandalar kuylab ijod etganlar.

O'zbek Estrada musiqasi shakllanish jarayonida an'anaviy xalq musiqa namunalari muhim zamin bo'lgan. Bunda asosan, raqsbopligi, ohang usullarida ijro etilgani qo'l kelgan. Hozirgi paytda ushbu holat o'zbek Estrada musiqasining milliylik asosini ta'minlovchi muhim vositalardan biri bo'lib desak, to'g'ri bo'ladi. 1970-1980 yillarda estrada san'ati yanada rivojlandi. Yangi guruhlar, yangi sahna ko'rinishlari paydo bo'ldi. Musiqa va texnologiyalar uyg'unlashgani sari estrada san'ati ham zamonaviylashdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab yaratilayotgan qo'shiqlar Vatan, istiqloq, do'stlik va muhabbat mavzularida yozilgan. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov raisligida Milliy Estrada san'atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashi tuzildi. Ushbu Kengash badiiy-musiqiy jamoalar oldiga bir qancha asosiy vazifalar va talablar qo'ydi. Mamlakatimizda zamonaviy estrada qo'shiqchilik san'atini rivojlantirish yo'lida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan bu sohaga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, yoshlar o'rtasida estrada san'atiga qiziqish kuchayib yangi-yangi ijodiy guruhlar va xonandalar maydonga chiqmoqda

O'zbekiston yoshlar mamlakati. Davlatimiz siyosati ham har tomonlama yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilganini barchamiz guvohimiz. O'zbekistonda ko'plab tanlovlar, festivallar tashkil etilmoqda. Yoshlar festivallarda faol ishtirok etib, mamlakatimiz nomini munosib himoya qilmoqdalar. Yoshlarga qaratilayotgan e'tibor nafaqat ular iste'dodining namoyon bo'lishiga, balki ma'naviy yetuk, zamonaviy fikrlovchi avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Bu boradagi islohotlar va tashabbuslar mamlakatimiz kelajagi mustahkam poydevorga tayanayotganidan dalolat beradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan so'nggi yillarda "Ijod maktablari", "Barkamol avlod" markazlari va boshqa ijodiy to'garaklar faoliyati kengaytirildi. Bu maskanlarda yoshlar rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa, teatr, raqs san'ati kabi yo'nalishlarda o'z qiziqish va qobiliyatlarini namoyon etmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda: Estrada san'ati O'zbekiston musiqa sahnasiga yangicha uslub, sahna madaniyati va texnik imkoniyatlarni olib keldi. Estrada qo'shiqchilari orqali xalq orasida keng ommalasib, sekin asta professional sahnaga chiqdi. Shunday qilib, Estrada san'ati O'zbekistonda nafaqat musiqiy janr sifatida, balki milliy madaniyatimizning ajralmas qismi sifatida shakllandi va rivojlanishda davom etmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mannopov, S., Karimov, A., Ataboeva, S., Ergashev, A., & Usmanova, S. (2021). Development Of Symphonic Music in Uzbekistan. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 2(2), 53-56.
2. Umarov M - Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. -T., 2009
3. Ibragimov O. O'zbek musiqa ijodi. T., 1990.
4. Vaxidov S. "Estradnaya pesnya// Uzbekskaya muzika na sovremennom etape.T.;GILI im.G.Gulyama.1977.-123-139s.
5. Ergashev, A., Ataboyeva, S., Djalalova, N., & Usmonova, S. (2021). THE ROLE OF COMPOSERY IN THE ART OF NATIONAL SINGING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 863-867..